

IQLIM O'ZGARISHINING EKOLOGIYA VA ATMOSFERA HAVOSIGA TA'SIRI.

D.S. Yarmatova

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti
"Ekologiya va hayot xavfsizligi" kafedrasida dotsenti.

dilbar_yarmatova@samdu.uz

K.Sh. Normamatova

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti
"Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" yo'nalishi 4-bosqich talabasi.

U.V. Norqulov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti
"Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

norkulovulugbek5@gmail.com

Annotatsiya: Global iqlim nimaligini chuqurroq anglash uchun dastlab atmosfera haqida tushunchaga ega bo'lish talab etiladi. Atmosfera inson hayoti uchun zarur bo'lgan tabiiy muhit, geografik qobiq, biosferaning muhim tarkibiy qismidir. Atmosfera havosi hayot uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Atmosfera borligi yerda hayot mavjudligining muhim shartlaridan biridir.

Kalit so'zlar: Atmosfera, iqlim, ekologiya, ozon, global isish.

ВЛИЯНИЕ ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА НА ЭКОЛОГИЮ И АТМОСФЕРНЫЙ ВОЗДУХ.

Аннотация: Для более глубокого понимания глобального климата необходимо сначала иметь представление об атмосфере. Атмосфера — это естественная среда, необходимая для жизни человека, важная составная часть географической оболочки — биосферы. Воздух атмосферы имеет чрезвычайно важное значение для жизни. Наличие атмосферы является одним из важнейших условий существования жизни на Земле.

Ключевые слова: атмосфера, климат, экология, озон, глобальное потепление.

THE IMPACT OF CLIMATE CHANGE ON ECOLOGY AND ATMOSPHERIC AIR.

Annotation: The atmosphere at first for a deeper understanding of what the Global climate is it is required to have an understanding of. The atmosphere is an important component of the natural environment, geographical shell, biosphere, necessary for human life. Atmospheric air is extremely important for life. The presence of an atmosphere is one of the important conditions for the existence of life on Earth.

Keywords: atmosphere, climate, ecology, ozone, global warming.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev 2024-yil Boku Sammitida soʻzlagan nutqida iqlim oʻzgarishlarining salbiy oqibatlari Markaziy Osiyoga kuchli taʼsirini oʻtkazmoqda deya aytib oʻtdi. Bu borada Oʻzbekistonda uglerod neytralligiga erishish boʻyicha keng miqyosdagi islohotlar olib borilmoqda. 2030- yilgacha havoga issiqxona gazi chiqarilishini uchdan bir qismga kamaytirish rejalashtirilgan. Bu majburiyatlar 2050-yilga qadar yanada kengaytiriladi. Yashil energetika ulushi 40% ga yetadi deya alohida taʼkidladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS).

Global iqlim oʻzgarishi XXI asrning asosiy muommolaridan biri. Insoniyatning taraqqiyotga erishish yoʻlida tabiatga nisbatan ayovsizlarcha munosabatda boʻlishi atrof-muhitdagi munosabatlarning izdan chiqishiga sabab boʻlmoqda. Oʻzbekistonda 1880 yildan to hozirgi vaqtgacha boʻlgan davrda oʻrtacha yillik harorat 1,6 daraja (13, 2 dan 14,8 °S gacha) oshdi, bu global miqyosda kuzatilayotgan oʻrtacha surʼatlardan yuqoridir. Mutaxassislarining prognozlariga koʻra 2030-2050 yillarda mintaqada havo harorati yana 1,5-3°Sga koʻtarilishi mumkin. Havo haroratining ayniqsa Orolboʻyida koʻtarilishi kutilmoqda, bu esa mahalliy iqlim oʻzgarishlari bilan yanada ogʻirlashadi. BMTning Iqlim oʻzgarishi toʻgʻrisidagi Doiraviy konvensiyasi (BMT IOʻDK) iqlim oʻzgarishiga qarshi kurash boʻyicha xalqaro harakatlarning asosi boʻlib, atmosferadagi issiqxona gazlari konsentratsiyasini iqlimiy tizimga xavfli antropogen taʼsir koʻrsatishiga yoʻl qoʻymaydigan darajada barqarorlashtirishga qaratilgan. Oʻzbekiston BMT IOʻDKga 1993 yilda qoʻshildi.[5]

Ob-havo maʼlum hududdagi atmosferaning 10-12 km balandlikda bir vaqtdagi, bir kunlik fizik holatini ifodalaydi. Iqlim quyosh atrofida harakatlanib turadigan yer sayyorasi yuzasiga yaqin boʻlgan atmosfera qobigʻining troposfera qatlamida roʻy beradigan tabiiy jarayonlari natijasidir. Iqlim deb maʼlum bir hududda uzoq yillar takrorlanib turadigan ob-havo rejimiga aytiladi.

Atmosfera havosi hayot uchun nihoyatda ahamiyatlidir. Atmosfera borligi yerda hayot mavjudligining eng muhim shartlaridan biridir. U quyoshdan keladigan

energiyani o'zgartiradi, yorug'likni tarqatadi, tovushlar vujudga keladigan energiyani o'zgartirish kabi muhim jarayonlarda xizmat qiladi. Havosiz yerda ovoz bo'lmaydi, sukunat hukm suradi. Atmosfera yer po'stiga kimyoviy ta'sir ko'rsatdi, yer yuzasini sovib ketishdan saqlaydi (atmosfera bo'lmaganida yer yuzasi kunduzi 100 °C gacha isib, kechasi 100 °C gacha sovib ketar edi, ya'ni haroratning sutkalik tebranishi 200 °C ga yetar edi) issiqlik va namlikni tartibga solib turadi, ularning hududiy tarqalishini belgilaydi.

Yerdagi hayotning energetik asosi bo'lgan quyosh nurlari yer yuziga atmosfera orqali o'tib keladi va u organizmlarni ultrabinafsha nurlarning halokatli ta'siridan saqlaydi, meteoritlarga qarshi qalqon bo'lib xizmat qiladi. Sayyoramizda atmosfera bo'lmaganida, uning qiyofasi hayotsiz bo'm-bo'sh oy qiyofasiga ko'p jihatdan o'xshash bo'lar edi. Atmosfera nafas olish, kislorod va fotosintez uchun zarur bo'lgan karbanat angidrid manbaidir.

Insoniyatning hozirgi taraqqiyot bosqichida neft, gaz, toshko'mir va boshqalardan nihoyatda ko'p yoqishi natijasida atmosferadagi karbanat angidrid gazi va chang miqdori jadal ortib bormoqda.

NATIJALAR (PEZYLIBTATY / RESULTS).

O'zbekistonda BMT IO'DKni amalga oshirish bo'yicha harakatlarni muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazi zimmasiga yuklatilgan.

O'zbekiston 1999 yilda rivojlangan mamlakatlarga issiqxona gazlari ajratmalarini qisqartirish yoki barqarorlashtirish majburiyatlarini yuklovchi xalqaro bitim – Kioto protokolini ratifikatsiya qildi.[5]

Hisoblarga ko'ra, keyingi yarim asrda turli yoqilg'ilardan foydalanish natijasida atmosferaga ajralib chiqqan karbanat angidrid miqdori qariyb 40% ga ortgan.

2017 yil 19 aprelda O'zbekiston Parij bitimini imzoladi, 2018 yil 2 noyabrda ratifikatsiya qildi. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-491-son "Parij bitimini ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi Qonuni 2018 yil 2 oktabrda qabul qilindi. Bitim O'zbekiston uchun 2018 yil 9 dekabrda kuchga kirdi.

Parij bitimining maqsadi - IO'DK amalga oshirilishini faollashtirish, global o'rtacha haroratning industriallashtirishgacha (1750y.) bo'lgan darajaga nisbatan 2°S ga saqlab turish hamda haroratning 1,5°S gacha o'sishini cheklashga harakat qilishdan iborat, bu 2050 yilga kelib iqlim o'zgarishi global ajratmalarini 40-70%ga kamaytirishni va 2100 yilga kelib uning 0 yoki manfiy ko'rsatkichga yetkazishni talab etadi.

Parij bitimini imzolashning zaruriy sharti – mamlakatning 2030 yilga qadar erishmoqchi bo'lgan issiqxona gazlari tashlamalarini kamaytirishga oid Mo'ljallanayotgan milliy miqyosda belgilanadigan hissa (MMBH)ni tayyorlash va

BMT IO‘DK kotibiyatiga taqdim etish. Milliy miqyosda belgilanadigan hissa (MBH) Parij bitimining global maqsadlariga hissa qo‘shish uchun milliy harakatlarni amalga oshirishni asosiy mexanizmidir.

Parij bitimi bo‘yicha O‘zbekistonning asosiy majburiyati - **2030 yilga qadar issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010 yildagi darajadan 10%ga qisqartirish.**

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).

BMT IO‘DK bo‘yicha majburiyatlarni bajarish doirasida O‘zgidromet tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda BMT IO‘DK talablari va ko‘rsatmalariga muvofiq, Birinchi milliy axborot (1999 y.) va uning 2-bosqichi bo‘yicha hisobot (2001 y.), Ikkinchi milliy axborot (2008 y.), Uchinchi milliy axborot (2016 y.) tayyorlangan va taqdim etilgan. Bundan tashqari, O‘zgidromet vazirlik va idoralar bilan birgalikda issiqxona gazlari tashlamalari inventarizatsiyasini tayyorlaydi. 1990-2012 yillar uchun inventarizatsiya bo‘yicha hisobotlar tayyorlangan.

Hozir To‘rtinchi milliy axborotni tayyorlash ishlari olib borilmoqda. Yangilangan ma’lumotlar bo‘yicha Birinchi ikki yillik hisoboti tayyorlandi va BMT IO‘DK Kotibiyatiga taqdim etildi. Ikki yillik hisobotga ikkita asosiy yo‘nalish kiritilgan: 1990-2017 yil uchun issiqxona gazlari tashlamalari inventarizatsiyasi va iqlim o‘zgarishini yumshatish choralari samaradorligini baholash.

O‘zgidromet BMT Taraqqiyot dasturi va manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda iqtisodiyot tarmoqlari va iqlim o‘zgarishiga eng zaif bo‘lgan mintaqalarga qaratilgan Iqlim o‘zgarishiga Milliy moslashish rejasini ishlab chiqishni rejalashtirmoqda. Bu ham mamlakatning Parij bitimi bo‘yicha majburiyatidir.

O‘zbekiston Konvensiya va Parij bitimi Tomoni sifatida iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarida issiqxona gazlari tashlamalarini qisqartirishga yo‘naltirilgan izchil siyosatni amalga oshirmoqda. Hukumat tomonidan iqlim o‘zgarishi sohasida harakatlarni tartibga solish va choralarni amalga oshirish yuzasidan qator hujjatlar qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrdagi PQ-4477-sonli qaroriga muvofiq, O‘zgidromet tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda tayorlangan “2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «Yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” tasdiqlandi va ushbu Strategiyani ilgari surish va joriy etish bo‘yicha Idoralararo kengash tuzildi. Ushbu Strategiyaning Harakatlar rejasi (Yo‘l xaritasi)ga muvofiq, har bir vazirlik va idoralarga iqlim o‘zgarishini yumshatish yoki unga moslashish bo‘yicha vazifalar yuklatilgan.

“Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida” va “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining qabul qilinishi

O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishni tezlashtirish (quyosh va shamol elektr stansiyalarni qurish) uchun huquqiy va me'yoriy asos yaratdi.

BMT IO'DK va Parij bitimi bo'yicha majburiyatlarni bajarish doirasida issiqxona gazlar tashlamalarini kamaytirish va iqlim o'zgarishiga moslashishning ustuvor yo'nalishlari mamlakatning tegishli strategik va tarmoq rejalari va dasturlarida aks ettirilgan.

O'zbekiston Respublikasining BMT IO'DK va Parij bitimidagi ishtiroki rivojlanayotgan mamlakat sifatida iqlimni moliyalashtirish jamg'armalaridan mablag' jalb qilishga imkon beradi, shu jumladan, Yashil iqlim fondi (YaIF), Adaptatsiya jamg'armasi (AJ), Global ekologik jamg'armasi (GEJ) va boshqalar.

Global ekologik jamg'arma (GEJ), BMT Taraqqiyot dasturi (BMT TD), BMT Atrof-muhit dasturi (YuNEP) va boshqa halqaro tashkilotlarning moliyaviy ko'magi yordamida mamlakatning iqlim o'zgarishini yumshatish va unga moslashish bo'yicha majburiyatlarini bajarish uchun ko'plab loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirildi va hozirgi paytda amalga oshirilmoqda.[5]

Iqlim o'zgarishi - keng tarqalayotgan, global va tezlashib borayotgan jarayondir. G'arbda yashovchilar uchun ham sayyoraning ishish xavfi endi faqat chekka hududlarga ta'sir qiladigan muammo emas. Dunyoning deyarli barcha qismida istiqomat qilayotgan insonlar iqlim o'zgarishi natijasida yuzaga kelayotgan hodisalarni o'z tanalarida his qilishmoqda.

Hukumatlararo ekspertlar guruhi yer ilgari hisob kitob qilinganidan ko'ra tezroq isib borayotganini ma'lum qilishmoqda. Dunyo bo'yicha o'rtacha harorat 1,1 darajaga ko'tarilgan. Bu esa 2040-yilga borib o'rtacha harorat 1,5 darajaga ortishini bildiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, iqlimning global o'zgarishi nafaqat o'rtacha havo haroratining o'sishida, balki, eng avval, ayrim tabiat hodisalari intensivligi sonining oshishida ham namoyon bo'lmoqda. Issiq to'lqinlar, qurqoqchilik, suv toshqini, keskin isib ketish va qora sovuq (ayoz), sellar, kuchli shamollar ta'sir etib kelmoqda. Iqlim o'zgarishi birgina atmosfera havosiga ta'sir etib qolmasdan ekotizimlarning barqarorligi va biologik xilma-xilligiga ham ta'sir qilmoqda.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Hozirgi vaqtda dunyo bo'ylab urbanizatsiya jarayoni jadallik bilan rivojlanmoqda. Shaharlarda yashovchi aholining ko'payishi natijasida tabiiy ekotizimlar o'zgarib, sun'iy landshaftlar paydo bo'lmoqda. Bunday o'zgarishlar shahar ekologiyasiga, ayniqsa, bioxilma-xillikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shahar ekotizimlari, jumladan, xiyobon va bog'lar, havoning sifatini yaxshilash, haroratni tartibga solish, tuproq eroziyasining oldini olish va biologik xilma-xillikni saqlash kabi muhim ekologik funksiyalarni bajaradi. Jumladan Universitet xiyoboni kabi yashil hududlar Samarqand shahrining ekologik muhitini muvozanatlashda katta rol o'ynaydi. Ushbu hududlar iqlim o'zgarish jarayonida ham biomuhit barqarorligini

ta'minlash, aholi salomatligi va psixologik holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan birga, shahar ekotizimining bioxilma-xilligini saqlab qolish uchun muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida" farmoni. 21.04.2017 yildagi PF-5024-son
2. Alibekov L.A. "Inson va tabiat", Toshkent "Fan va texnologiya" 2016. 272-bet.
3. Yarmatova D.S. "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar", Samarqand, SamDU o'quv qo'llanma 131-bet.
4. Yarmatova D.S. "Ekologik monitoring", Toshkent "Fan va texnologiya" 2012.
5. <https://hydromet.uz/uz/node/609>